

№1(5)
2025



ÓZBEKISTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASI
NÓKIS FILIALÍ

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI / ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА / BULLETIN OF MUSIC AND ART

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍŚÍ

ILIMY-METODIKALÍQ JURNAL

**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ
BILIMLENDIRIW, ILIM HÁM INNOVACIYALAR
MINISTRILIGI
ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MÁDENIYAT
MINISTRILIGI
ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASÍ
NÓKIS FILIALÍ**

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikaliq jurnal

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI
Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА
Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART
Scientific-methodical journal

№ 1(5)/2025

SHÓLKEMLESTIRIWSHI:

Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali

Bas redaktor: – Allanbaev Rudakiy, *professor*

Juwaplı xatker: – Kamalova Difuza, *filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori, docent.*

REDKOLLEGIYA AĞZALARI:

OZODBEK NAZARBEKOV – Ózbekstan Respublikası Mádeniyat ministri, *professor*;

AZIZBEK TURDIEV – Ózbekstan Respublikası Mektepge shekemgi hám mektep bilimlendiriw ministri máslahátshisi, *filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD)*;

BEGIS TEMIRBAEV – Qaraqalpaqstan Respublikası Mádeniyat ministri, *docent*;

KAMOLIDDIN URINBAYEV – Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası rektori, *professor*;

OMONILLA RIZAEV – kórkem ónertanıw ilimleriniń kandidati, *professor*;

HIKMAT RAJABOV – *professor*;

ORAZALI TOSHMATOV – *professor*;

BAXT AZIMOV – pedagogika ilimleri kandidati, *docent*,

MUHABBAT TOLAXOJAEVA – kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, *professor*;

MARFUA XAMIDOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, *professor*;

BOLTABOY SHODIYEV - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori;

OZODA TOSHMATOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, *professor*;

SAYYORA ĞAFUROVA – *professor*;

OYDIN ABDULLAEVA – *professor*;

IRODA MIRTALIPOVA – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

PARAXAT MAMUTOV – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

QURBANBAY JARIMBETOV – filologiya ilimleriniń doktori, *professor*;

ALIMA BERDIMURATOVA – filosofiya ilimleriniń doktori, *professor*;

ZIYADA BEKBERGENOVA – filologiya ilimleriniń doktori (DSc), *professor*;

ALIMA PIRNIYAZOVA – filologiya ilimleriniń doktori (DSc);

YUSUPOV QONÍSBAY – pedagogika ilimleriniń doktori (DSc), *professor*;

UTEBAEV TAJIBAY - pedagogika ilimleriniń doktori (DSc), *professor*;

SEYTKASIMOV DAULETNAZAR - pedagogika ilimleriniń doktori (DSc);

ARTÍQBAY EREJEPOV – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), *docent*;

JAÑABAY MARZIYAEV – filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), *docent*;

Jurnal qaraqalpaq, ózbek, rus hám ingliz tillerinde baspadan shıǵarıladı. Jurnal Ózbekstan Respublikası Prezidenti Administraciyası janındaǵı Málimleme hám ǵalaba kommunikaciýalar agentligi tárepinen mámleketlik dizimnen ótkerilgen. №047569 4-oktyabr, 2022-jıl.

Ózbekstan Respublikası Joqarı Attestaciya Komissiyasınıń 2024-jıl 30-iyuldaǵı 358-sanlı qararı tiykarında jurnal 17.00.00-Kórkem ónertanıw ilimleri jónelisi boyınsha dissertaciya nátiýjelerin baspadan shıǵarıw ushın arnalǵan jetekshi ilimiy jurnallar qatarına kiritilgen.

Redaksiya mánzili: Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali Turan oypatı 29-jay.

E-mail: ozdknf@edu.uz, UZDK_Nukus@exat. Tel:551020540 Veb-sayt: <https://science.uzdknf.uz/>

ISSN-2181-4112

**DAMLI CHOLG‘ULAR VA ULARNING RIVOJLANISH
BOSQICHLARI**
Qurbanazarov P.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali

Annotatsiya. Ushbu maqolada damli cholg‘ular hamda ularning makon va zamonlardagi ahamiyati, shuningdek hozirgi vaqtgacha bo‘lgan davrdagi rivojlanish bosqichlari haqida so‘z yuritiladi. Ushbu tadqiqotning maqsadi damli cholg‘ularning ajdodlari bo‘lgan ko‘plab cholg‘u asboblari ibtidoiy zamonlardan beri mavjud bo‘lganligi va turli evolyutsiyalar natijasida bugungi kungacha yetib kelgan eng qadimiy cholg‘u asboblardan biri ekanligini tasviriyl tushuntirishlar bilan ko‘rsatish va tushuntirishdir.

Kalt so‘zlar: damli cholg‘ular, ijro, tarix, musiqa, orkestr, ansambl, mahorat, damli cholg‘u turlari, rivojlanish bosqichlari.

Аннотация. В данной статье рассматриваются музыкальные инструменты и их значение в пространстве и времени, а также этапы развития до настоящего времени. Цель данного исследования - показать и объяснить с помощью изобразительных пояснений, что многие музыкальные инструменты, прародители духовых инструментов, существуют с первобытных времен и относятся к числу древнейших музыкальных инструментов, дошедших до наших дней в результате различных эволюций.

Ключевые слова. Духовой инструмент, исполнение, история, музыка, оркестр, ансамбль, мастерство, виды духовых инструментов, этапы развития.

Annotation. This article discusses the musical instruments and their importance in space and time, as well as the stages of development up to the present time. The aim of this study is to show and explain with pictorial explanations that many musical instruments, the ancestors of wind instruments, have existed since primitive times and are among the most ancient musical instruments that have reached the present day as a result of various evolutions.

Keywords. Wind instrument, performance, history, music, orchestra, ensemble, mastery, types of wind instruments, stages of development.

Kirish: Manbalardan bilishimizcha, insoniyat hayotida musiqiy cholg‘ular birin-ketinlik bilan paydo bo‘la boshlagan. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, dastlab urma zarbli cholg‘ular, keyinchalik esa havo yordamida tovush hosil qilinadigan damli cholg‘ular, va keyinchalik esa torli cholg‘ular insoniyat tomonidan kashf etilganligini guvohi bo‘lamiz. Shunday ekan, cholg‘u ijrochiligi o‘ziga xos ijro imkoniyatlari va uslublariga ega bo‘lgan. Bizgacha yetib kelgan bu cholg‘ular bugungi kunda ham

takomillashib bormoqda. Shu qatorda damli cholg‘u asboblari turli davlatlarda har qanday sharoitda ham o‘zining ahamiyatini yo‘qotmasdan kelmoqda.

O‘zbek xalq milliy damli va zarbli cholg‘ulari qadimdan maishiy hayotda, saroy tantanalarida va harbiy yurishlarda keng qo‘llanilib kelingan. O‘zbekiston hududida asosan ikki xildagi cholg‘u ansambllari keng tarqalgan bo‘lib, bulardan biri damli va zarbli cholg‘ular (surnay, karnay, nog‘ora, doyra)lardan tashkil topgan va ikkinchisi torli cholg‘ular hamda nay, qo‘shnay, bulamon kabi damli cholg‘ular va doira ishtirokidagi ansambllardir. Harbiy damli cholg‘ular orkestrlari tarkibida xizmatdagi askarlar farzandlari va bolalar orkestr tarbiyalanuvchilari sifatida xizmat qilganlar. Ularni yetakchi sozandalar turli cholg‘u sozlarda chalishga o‘rgatganlar. Ba’zi orkestrlarda damli cholg‘ulardan tashqari torli sozlar ham o‘rgatilgan. Bu bilan, sozandalar ham damli, ham simfonik, orkestrlarda ijrochi sifatida qatnashishlari mumkin bo‘lgan.

Asosiy qism: XV-XVI asrlardagi Sharq miniaturalarida milliy musiqa cholg‘ularidan: karnay, surnay, kus nog‘ora va nog‘oralarning ansambl(orkestr) shaklidagi ishtiroki nafaqat jang manzaralarida, balki saroy tantanalarida, ov va sport musobaqalarida ham ifodalangan. Xiva, Buxoro, Samarqand, Andijon, Balx va boshqa katta shaharlarda maxsus saroy «Nog‘oraxona»lari mavjud bo‘lgan. Saroy musiqa jamoalariga rahbar etib, asosan, mashhur nog‘orachilardan biri «mehtar» lavozimiga tayinlangan. XVIII-XIX asrlarda Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasini istilo qilish maqsadida yuborgan harbiy ekspeditsiyalari tarkibida bo‘lgan Yevropa damli va zarbli cholg‘ularidan tashkil topgan orkestr sekin-asta zaminimizga kirib kela boshladi. Ma’lumotlarga qaraganda Buxoro, Qo‘qon xonliklarida milliy harbiy cholg‘ular (karnay, surnay, bulamon, nog‘ora, nay, dovul) bilan birgalikda damli cholg‘ular orkestrlari ham faoliyat ko‘rsatganligi bizga ma’lum. XIX asrning 80-90 yillarida barcha harbiy qismlarda damli cholg‘ular orkestrlari mavjud bo‘lib, ular bir vaqtning o‘zida ko‘rgazmalar, yarmarkalar, tantanalar kabi turli xil jamoat tadbirlarida xizmat qilishgan. Ularning chiqish dasturlarida «Karapet», «Sevaman, sevaman, Mamajon», «Manjuriya tepaliklarida», «Vatanni qo‘msash», «Bulg‘or qizi» kabi qo‘shiqlar, ruscha, ukraincha, beloruscha raqs kuylari bo‘lgan. Hamza Hakimzoda Niyoziy Farg‘onadagi birinchi o‘zbek damli cholg‘ular orkestrining tashkilotchisi bo‘lib (1916), bu orkestrda musiqa san’atiga alohida e’tibor bergan holda o‘zbek yoshlari orasida musiqa havaskorlarini cholg‘u ijrochiligiga o‘rgatgan shaxsdir. Damli cholg‘ularning hozirgi ko‘rinishi yuz yillar davomida turli davlatlarda o‘z taraqqiyotini bosib o‘tishi orqali yuzaga kelib, o‘ziga xos va mos repertuari, milliy hamda janriy yo‘nalishlari sababli turli ko‘rinishdagi tarkibiy shakllari yaratildi [1: 6].

Damli musiqa cholg‘ularini uch guruhga ajratishimiz mumkin:
1. Qadimgi oddiy fleytalar – bo‘ylama-uzunasiga, ko‘ndalang chalinadigan

va ko‘p naychali (panfleytasi) cholg‘u asboblari. 2. Tilchali musiqa damli cholg‘u asboblarga – hozirgi goboy, fagot, klarnet damli cholg‘u asboblari kiradi. 3. Misli damli cholg‘u asboblari zamonaviy cholg‘ular – valtorna, truba, trombon, kornet, alt, tenor, bariton, tuba hamda ularning ajdodlari bo‘lgan cholg‘ular kiradi. Damli cholg‘ular orkestrini tashkil topishi va rivojlanishi harbiy tarix bilan chambarchas bog‘liqdir. Damli cholg‘ular orkestrlaridan, asosan harbiy maqsadlarda, ya’ni harbiy marosimlarga aloqador musiqalar ijro etilganida va harbiy qism hamda bo‘linmalarning jangovor harakatlarida foydalanilgan. Musiqa cholg‘ulari orkestr tarkibidan joy olishdan avval juda murakkab rivojlanish jarayonini bosib o‘tdi. Tarixiy va ilmiy adabiyotlarda harbiy qo‘shinlarda foydalanilgan musiqa cholg‘ulari va guruhleri haqida ko‘plab ma’lumotlar berilgan. Otliq qo‘shinlarda trubalar va litavralardan, piyoda qo‘shinlarda esa fleytalar va barabanlardan foydalanilgan. Aynan mana shu kichik ansambl guruhleri kelajakda harbiy damli cholg‘ulari orkestrining poydevorini tashkil qildi [1: 5-6].

Turkiston o‘lkasida damli cholg‘ular ijrochiligi rivojiga katta hissa qo‘shgan ma’lumotli sozandalar ichida A.F.Eyxgorn, F.V.Leysek, N.N.Mironovlar bor edi. A.F.Eyxgorn O‘zbek musiqa san’ati targ‘ibotining boshlovchilaridan hisoblanadi. U o‘zining harbiy orkestr kapelmeysterligi ishidan (u 1870-yildan Sirdaryo viloyati harbiy orkestri 1883-yildan Skoblev hozirgi Farg‘ona viloyati harbiy orkestrlari kapelmeysteri) tashqari o‘lkaning konsert faoliyatida faol ishtirok etadi. U kompozitsiya va musiqa etnografiyasi bilan shug‘ullanadi. V.Belyaevning yozishicha: – «A.F.Eyxgorn shaharning musiqa va konsert hayotida faol ishtirok etdi. U yakkaxon skripkachi, torli kvartet qatnashchisi sifatida jonli faoliyat yurgizdi. U alt, violonchel, organ, fortepiano hatto mis damli cholg‘ularda chalishga ham harakat qilardi». 2 A.F.Eyxgorn rahbarligidagi harbiy orkestr, Toshkent aholisiga ko‘plab konsertlar berardi va ancha muvaffaqiyat qozongan edi. XIX asrning 70-80- yillari Toshkent musiqa ixlosmandlari orasida Eyxgornning Osiyo mavzulariga bag‘ishlangan “Polka”, “Toshkentcha”, “Vals”, “Turkiston kengliklarida”, “Samarqand xarobalaridagi oydin kecha” va boshqa asarlari mashhur edi. Eyxgorn notaga tushirgan va Ovro‘pa cholg‘ulari hamda damli cholg‘u orkestriga moslashtirgan mahalliy kuy va qo‘shiqlarning bir qanchasi konsertlarda muvaffaqiyat bilan ijro qilinar edi. Eyxgornning eng katta xizmatlaridan biri O‘rta Osiyo xalqlari musiqa cholg‘u asboblari yig‘ish va ularning ta’rifini yozish bo‘lib, 36 cholg‘u asbobi bo‘yicha tuzgan katalogi kata ahamiyatga ega bo‘ldi. A.F.Eyxgorn (1844-1936). 1870- yildan 1883-yilgacha Turkistonda yashagan. Toshkentga ko‘chib kelgunga qadar Riga, Peterburg va Moskva opera teatrlarida ishlagan. Беляев В. «Музыкально этнографические работы А.Ф.Эйхгорна в Узбекистане». -В кн.: «Музыкальная фольклористика в Узбекистане». Т., 1963. hamda cholg‘ularning ko‘pchiligi uning kolleksiyasidagi eng qimmatli asboblardan edi [2: 46].

Turkistonda damli cholg'ular ijrochiligini rivojlantirishda Chex sozandasi va etnografi, harbiy kapelmeyster V.V.Leysek faoliyatining ahamiyati kattadir. V.V.Leysek (1857-1935) ko'zga ko'ringan Chex sozandasi. 1878-yilda Praga konservatoriyasini tamomlagandan keyin Rossiyaga keladi va Turkiston saper brigadasi harbiy orkestrining kapelmeysteri sifatida ish boshlaydi. Oktyabr to'ntarishidan keyin O'zbekistonda yashab ijod qiladi va o'zbek musiqa madaniyatini rivojlantirish ishida faol qatnashadi. Qo'qonda joylashgan saper batalonining harbiy orkestri rahbari edi. Bu yerda u 1898-yili «Musiqasevarlar» to'garagini tashkil qiladi. To'garak harbiy orkestr sozandalaridan tashkil topgan bo'lib, Mironov xor va orkestrga rahbarlik qilar va orkestr jo'rligida yakkaxon skripkachi sifatida, ham chiqar edi. XIX asr oxirida Rus-Chex munosabatlarining yaxshilanishi natijasida, ko'pgina chex sozandalari Rossiyaga keladi. Bular qatorida V.V.Leysek ham bor edi. Bu sozanda Turkistonda ma'rifiy jamoat va ijodiy faoliyat yuritgan arboblardan hisoblanib, Xo'jayli batalyoni harbiy orkestri kapelmeysteri bo'lgan. Bundan tashqari u «Lira» deb nomlangan xor jamoasini boshqarar, gimnaziyada musiqa va ashuladan dars berar, O'rta Osiyo xalqlari musiqa folklorini o'rganishga harakat qilar va asarlar yaratar edi. Toshkent musiqa jamiyati konsertlarida u o'zini ijrochi sifatida namoyon qilgan. Shunday konsertlardan birida torli kvartet tarkibida Ya.B.Gordon (1-skripka), A.B.Gordon (2-skripka), V.V.Leysek (alt), A.I.Mirbadalov (violonchel)lar ijrosida P.I.Chaykovskiyning kvartetidan "Andante kantabile"sini ijro qilishgan. V.V.Leysek ko'pgina harbiy marshlar yozib, harbiy orkestrlar bilan ishlash davomida ularning repertuarini milliy kuylarga asoslangan yangi asarlar bilan boyitishga harakat qildi. "Leysek o'zbek kuylarini yig'ish va orkestr cholg'u asboblari moslab qayta ishlash bilan ham, shug'ullanardi" deb eslaydi, uning shogirdi sozanda va pedagog F.I.Negovelov. Bunday kuylardan ko'pchiligi orkestr yakkaxonlari tomonidan konsertlarda ijro etilar va nafaqat Ovro'palik tinglovchilar balki, mahalliy aholi tomonidan ham, qizg'in kutib olinar edi. V.V.Leysekning ahamiyatli ishlaridan biri 1890-yilda yozilgan "Osiyo popurisi" asaridir. Bu asar o'zbek, qoraqalpoq, qirg'iz, qozoq xalq kuylari asosida tuzilgan bo'lib, Leysek tomonidan fleyta, goboy, klarnet, fagot va mis damli cholg'ular kornet, truba, valtorna, trombon, bas va zarbli katta hamda kichik baraban, uchburchak (treugolnik) kabi cholg'ulardan tashkil topgan damli cholg'u orkestriga cholg'ulashtirilgan edi. Chex sozandasining Turkiston kuylari asosida, birinchi bo'lib damli cholg'ular orkestri uchun asar yaratishga urinishi katta tarixiy ahamiyatga egadir. V.V.Leysekning ko'pqirrali musiqiy-jamoatchilik, o'qituvchilik va konsert ijrochilik faoliyati O'zbekiston musiqa madaniyati rivojida o'z izini qoldirgan.

Turkistonda musiqa san'atining rivoji sohasida ulkan ishlarni qilgan sozandalardan yana biri rus armiyasining kapelmeysteri N.N.Mironovdir. N.N.Mironov 1901-yili Toshkentga o'tkaziladi va harbiy dirijyor hamda kompozitor

sifatida shaharning musiqiy hayotida faol qatnasha boshlaydi. Bu yerda o'zining «Korobeyniki» degan operasini qo'yadi. Uning keng tashkiliy, dirijyorlik va musiqiy pedagogik faoliyati O'zbekistonda orkestr cholg'ulari ijrochiligi rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. Turkistonda damli cholg'ular ijrochiligini yo'lga qo'yishda jonbozlik ko'rsatgan harbiy sozandalardan yana Turkiston polkining kapelmeysteri V.G.Poppel-Bauer, beshinchi Orenburg kazak polki kapelmeysterlari: Ya.V.Gordon va G.M.Kozolupov, 17 chi o'qchi bataloni kapelmeysteri G.A.Maxan va boshqalarni tilga olish mumkin. Ushbu kapelmeysterlarning O'rta Osiyodagi faoliyati yerli aholini Rus va g'arb klassik kompozitorlari asarlari bilan tanishtirishga katta hissa qo'shdi. Harbiy damli cholg'u orkestrlari har xil tinglovchilar orasida chiqishlar qilib turli va keng miqyosdagi konsert faoliyatini yuritdilar. Ular nafaqat tantanali marosimlar balki, turli konsert maydonchalarida ham chalar edilar. Harbiy damli cholg'ular orkestrlari o'z repertuari ichiga mashhur opera va operettalardan ommabop uvertyuralar, fantaziylar va poppurilarni qamrab olgan edi. Toshkentda so'zsiz kinoning paydo bo'lishi bilan bu orkestrlar ko'pincha tomosha boshlanishidan oldin kuylar ijro qilgan. Askarlar orasidagi savodsizlikni tugatish uchun Pushkin jamiyati "Xalq o'qishlari" kechalarini tashkil qilar edi. Damli cholg'ular orkestrlari esa ko'pchilikni mashhur rus yozuvchisining asarlarini o'qishda qatnashish uchun chorlar edi. Bunda orkestr repertuarida o'qiladigan asar xarakteriga mos tushadigan kuyni tanlash kapelmeyster tomonidan yaxshilab o'ylab ko'rilar va topib chalinari edi. "Xalq o'qishlari" keng xalq ommasini rus madaniyati bilan tanishtirish uchun, ta'sirchan tadbirlardan biri bo'lib, Turkistonning boshqa shaharlarida ham o'tkazilar edi. Toshkent shahar ziyolilari tomonidan yozda shahar bog'ida, harbiy kengash bog'ida va qishda harbiy kengash zalida sayil va kechalarda doimo damli cholg'ular orkestri yangrab turar, hali Turkistonda professional musiqa ta'limi bo'lmagan davrda harbiy orkestrlar va ijrochilik guruhlarining madaniy-ma'rifiy va orkestr ijrochiligini rivojlantirishdagi targ'ibot ishlari katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Mahalliy ziyolilarning musiqa san'atiga intilishi, Turkiston o'lkasida turli xildagi musiqasevarlar jamiyatlari va to'garaklarini paydo bo'lishiga olib keldi. 1870-yili Toshkentda shifokor va violonchelchi A.I.Nikitinovning uyida birinchi musiqa ixlosmandlari to'garagi tashkil qilindi. Bu to'garak a'zolari torli kvintet shaklida tarkib topib, u tobora kengaya bordi. To'garakning jonli faoliyat yurituvchi a'zosi Eyxgorn hisoblanardi. Mazkur to'garak asosida 1884-yili Toshkent musiqa jamiyati tashkil qilinadi. Bu jamiyatda harbiy damli cholg'ular orkestri zobit sozandalaridan tashkil topgan xor va havaskorlik simfonik orkestri bor edi. Bu jamiyatning faol tashkilotchilari V.V.Leysek va N.N.Mironovlar edi. Ular M.A.Balakirev va boshqa rus sozandalari tomonidan boshqarilgan rus musiqa jamiyatining an'alariga tayangan holda, keng musiqiy va ma'rifiy targ'ibot ishlarini olib borardilar. Toshkentda musiqiy-pedagogika ishlarini olib boruvchi kishilarning mavjudligi,

1890-yili musiqa jamiyati qoshida Turkistonda birinchi bo‘lib, fortepiano, damli cholg‘ular, torli cholg‘ular sinflari hamda, solfedjio va musiqa nazariyasi fanlarini olib boruvchi sinflar tashkil qilindi. Bularning ishini V.V.Leysek boshqarib turar, skripka sinfini Yu.Yu.Stefanovich olib borar edi. O‘quvchilar tomonidan to‘lanadigan to‘lovlarning ancha kam bo‘lishiga qaramasdan o‘quvchilar soni 50 kishiga ham yetmas edi. Bundan ko‘rinib turibdiki boshlang‘ich musiqa ta‘limini olish asosan Toshkentning rus millatiga mansub aholisini qiziqtirgani holda, mahalliy aholini jalb qilish haqida so‘z ham bo‘lishi mumkin emas edi.

Jamiyat a‘zolarining asosiy faoliyati havaskor sozandalarni jalb qilgan holda konsertlar, qo‘shiq va romans kechalari tashkil qilishdan iborat edi. Bunday konsertlarda harbiy damli cholg‘u asboblari orkestrlari faol qatnashgan. Ommaviy raqs kuylari kapelmeysterlar tomonidan shu orkestr uchun moslashtirilgan. Simfonik asarlar va operalardan parchalar ijro qilingan. Vokal san’atining chet ellik ustozlaridan saboq olgan, go‘zal ovozga ega bo‘lgan A.A.Key xorga rahbarlik qilgan. 1891-1895 yillari musiqa jamiyati V.V.Leysek rahbarligida rus va g‘arbiy Ovro‘pa klassiklari asarlaridan tashkil topgan, bir necha operalar qismlarini sahnaga olib chiqib tomoshabinlar hukmiga havola qilgan. 1882-yilda Toshkent aholisi M.I.Glinkaning “Ivan Susanin”, “Ruslan va Lyudmila”, J.Verdingning “Trubadur” operalaridan ayrim sahnalarni tinglab tomosha qilishga muvaffaq bo‘lganlar. Bunday chiqishlarning muvaffaqiyati asosan V.V.Leysek boshqargan orkestrning yuqori ijrochilik madaniyati sababli yuzaga kelgan. Musiqa jamiyatining ijodiy yuksalishi bilan birga uning turg‘unlik paytlari ham bo‘lgan. Shunday bir davrda bu tashkilotni mustahkamlash maqsadida 1895-yili tashkilotning musiqa rahbarligi lavozimiga tajribali va talantli tashkilotchi V.I.Mixaylek taklif qilinadi. Uning kelishi bilan jamiyatning faoliyati bir oz jonlanadi. Mixaylekning tashabbusi bilan gastrolga kelgan sozandalarning konsertlari keng targ‘ibot qilina boshlandi. Bu konsertlar asosan harbiy kengash zalida (hozirgi markaziy ofitserlar uyi) o‘tkazilar edi. V.I.Mixaylek – mashhur chex dirijyori, violonchelchisi va kompozitori. U ko‘p yillar davomida Aleksandr va Marinskiy imperator teatrlarida dirijyor bo‘lib ishlagan. Mixaylekning uyida ham V.V.Karnaukov (klarnet), M.A.Nasibov (fleyta), Ye.A.Rijikova va O.A.Rijikovalar (skripka), Mixaylekning o‘zi (violonchel), S.I.Vonsovska va V.A.Chenetskoy (fortepiano) hamda boshqalar ishtirokida kamer-cholg‘u kuylari yangrab turgan. 70-yillarning ikkinchi yarmida puflama asboblari uchun asarlar paydo bo‘ldi: fortepiano, nay, klarnet, shox va fagot uchun kvintet (1876), trombon va orkestr uchun konsert (1877), klarnet uchun konsert (1878), variatsiyalar.

Uzoq tarixiy yo‘lni bosib o‘tgan damli cholg‘u san’ati bugungi kunda o‘zining keyingi rivojlanish yo‘nalishi bo‘yicha harakat qilmoqda, bu puflama musiqachilarning ijro mahoratining yuqori darajasi, ularning yakkaxon va orkestr-

ansambl amaliyoti bilan ajralib turadi. Bunday yorqin badiiy va ijodiy san'at yo'nalishi - mamlakatimizda ham, xorijda ham munosib e'tirofga sazovor bo'lgan maktabga aylandi. Bu maktabda ko'plab iste'dodli cholg'uchilar va musiqa o'qituvchilarining avlodlari yetishib chiqqan, katta badiiy yakkaxon, ansambl va musiqa pedagogik repertuari, nazariy bilimlar hamda professional ijro mahorati erishilgan yutuqlardan dalolatdir. Bu kabi yutuqlarga erishishda musiqiy cholg'u ijro mahoratini shakllantirish va rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Hozirgi kundagi zamonaviy damli cholg'ular ijrochisi o'z sohasining ustasi – bu, eng avvalo, yuksak ijrochilik madaniyatiga ega bo'lgan, musiqiy ijrochilik faoliyati mohiyatini, musiqiy badiiy ijodni, o'z cholg'u asbobini chalish texnologiyasini mukammal biladigan kasb egasidir. Qanday bo'lmasin, bunday ijrochi yaxshi tan olinadi va boshqa musiqachilardan ajralib turadi, chunki u yuqori ovozli, intonatsiya va badiiy talqin madaniyati, shuningdek, nozik musiqiy did, musiqaga xos hissiy sezgirlik, ijodiy qobiliyatga ega ilhom va san'at. Bir so'z bilan aytganda, yuksak professional sozanda-ijrochining mahorati hamisha o'ziga xosdir. Bu o'ziga xoslik ijro faoliyatining individual uslubi bilan tavsiflanadi, bu esa, o'z navbatida, musiqachining individual ruhiy xususiyatlari (xarakteri, temperamenti, qobiliyatlari), shuningdek, musiqachining individual tabiati bilan belgilanadi.

Ijro mahoratini rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchi nima? Shubhasiz, bu o'z cholg'u chalish texnologiyasida ham, ijro etilayotgan musiqani individual musiqiy-badiiy idrok etishda ham, unga estetik-qiymatli munosabatni shakllantirishda ham, bevosita o'z-o'zini ham doimiy ravishda takomillashtirib borish zaruratidir. Ko'rinib turibdiki, ijro mahorati qanchalik mukammal bo'lsa, ijro va ijodiy talqin jarayoni shunchalik yaxshi ta'minlanadi. Ushbu rivojlanishning muhim sharti - doimiy ijodiy izlanish, shuningdek, qiziqishdir.

Puflama musiqachisining ijrochilik mahorati - bu professional bilim, malaka, qobiliyati va ko'nikmalarini texnik tashkil etishning sifat jihatidan yuqori darajasiga aylantiruvchi muhim omillardan biridir. Uning o'zini o'zi boshqarishi, shuningdek, musiqiy ijrochilik faoliyatining tabiati, turi va o'ziga xosligi (yakkaxon, ansambl, orkestr) bilan belgilanadigan maxsus shaxsiy ijodiy holatga - o'zini namoyon qilish darajasiga erishishi mumkin.

Shu bilan birga, bugungi musiqiy-pedagogik voqelik sharoitida yuqori professional, malakali va raqobatbardosh puflama musiqachilarni tayyorlash musiqa oliy o'quv yurtlari faoliyatining ustuvor vazifasi hisoblanadi. Shuning uchun ham asosiy e'tiborni uzoq tarixiy an'analarni saqlagan holda puflama cholg'u ijrochilarni zamonga mos tarzda tarbiyalash bo'yicha ta'lim strategiyasi talablarini amalga oshirishning yangi usullarini izlashga qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nigmatov R. Damli cholg'ular orkestri. – Toshkent: 2010.
2. G'offorov O'. Temuriylar davridagi damli cholg'ular tasnifi. "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal. Volume 5 Issue 3 / June 2024.
3. Анисимов М. Исполнительское мастерство как проблема теории и практики искусства игры на духовых инструментах. АВТОРЕФЕРАТ диссертации на соискание ученой степени кандидата искусствоведения Ростов-на-Дону – 2016
4. Ivanov V. D. Musiqachi-duxovikning lug'ati. M.: Musiq, 2007. 128 s

MAZMUNÍ

MUZÍKATANÍW

1	Ходжаметова Г.И. КАРАКАЛПАКСКАЯ ТРАДИЦИОННАЯ МУЗЫКА КАК ПЕРВООСНОВА СОЧИНЕНИЙ ФОРТЕПИАННОЙ МУЗЫКИ	3
2	Charshemov J. P.XINDEMITNING “LUDUS TONALIS” TSIKLINING GARMANIK TAXLILI	10
3	Мухаммедниязов К.Т. ИЗУЧЕНИИ ПРОБЛЕМЫ ВЗАИМОСВЯЗИ МУЗЫКИ И СЛОВА НА ПРИМЕРЕ «ПОЭТИКИ» АРИСТОТЕЛЯ	16
4	Abatbaeva R.O. XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA QORAQALPOQ MUSIQASI	22
5	Саидхонов А.С. ДВЕНАДЦАТЬ ГРАНИ СОВЕРШЕНСТВА (На примере трансцендентные этюды Ференца Листа)	29
6	Жумабаев А.Е., Муратбаева А.А. МУЗЫКАЛЬНАЯ ФОЛЬКЛОРИСТИКА	42
7	Saburova U.M. LYUDVIG BETHOVEN IJODIDA VARIATION SHAKL	48

KÓRKEM ÓNER

8	Allanbaev R.O. QORAQALPOQ KOMPOZITORLARI ASARLARIDA MUSIQIY DRAMALAR	53
9	Abdullaev F., Muratbaev A. QARAQALPAQSTANDA DEMLI ORKESTRINIŇ DÚZILIWI HÁM ONIŇ RAWAJLANIŇW BASQIŠHLARI	59
10	Qurbanazarov P. DAMLI CHOLG‘ULAR VA ULARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	65
11	Shermatov K.E. BUYUK ALLOMALAR ABU ALI IBN SINO VA ABU NASR FAROBIYLARNING MUSIQIY MEROSI	73
12	Abdullaeva U., Razatdinova A. KOMPOZITOR KEŇESBAY ABDULLAEVTIŇ QARAQALPAQ XALIŇ NAMALARINIŇ RAWAJLANIŇWINA QOSQAN ÚLESI	80
13	Александрова О.А. ПАМЯТИ ОПЕРНОГО ПЕВЦА КУРКМАСА МУХИТДИНОВА	86
14	Allaniyazov B. SKRIPKANING TARIXIY RIVOJLANISH JARAYONI	91
15	Erejepov A.A. QARAQALPAQ BAQSISHILIQ MEKTEPLERINIŇ ATQARIWSHILIQ KÓRKEM ÓNERI ÓZGESHELIKLERI HAQQINDA	98

16	Kamalova G.M. HIKMAT RAJABOVTIŇ DÓRETIWSHILIGINE TÁN ÓZGESHELIKLERI	104
17	Dosimbetov B.X. CHOLG‘U IJROCHISINI KONSERT VA SAHNA NAMOIYISHIGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	113
18	Zuxurov M.M. DIRIJYORLIQTA QOL HÁREKETLERINIŇ DURIS ATQARILIWI HÁM OLARDI RAWAJLANDIRIW	120
19	Embergenova G.A., Yo‘ldoshev L.E. XOR ASARLARINI TAHLIL QILISH OMILLARI	130
20	Paxratdinova L.Sh. SKRIPKA SAZ ÁSBABÍ TARIYXÍ	136
21	Karimova I.I. SKRIPKA SAZ ÁSBABÍNA SHÍĠARMA JAZĠAN DÓRETIWSHILER HÁM PROFESSIONAL ATQARÍWSHÍLAR ÁHMIYETI	145
22	Rejepov Sh.B. ĠAYÍP DEMESINOVTIŇ FORTEPIANO DÓRETIWSHILIGI (“Prelyudiya”lari misalında)	153
23	Mamutov P.A. TEATRDÍŇ TARIYXÍY QÁLIPLESIW HÁM DRAMATURGIYANIŇ RAWAJLANIW BASQÍSHLARÍ	159

MUZÍKA PEDAGOGIKASÍ

24	Umarova V.A. MUSIQA-IJROCHILARNI TANLOVLARGA TAYYORLASHDA USTOZ VA OILANING ROLI	164
25	Tnibaev P.K. DAMLI CHOLG‘ULARNI TALABALARGA O‘RGATISH: PEDAGOGIK YONDASHUVLAR VA METODLAR	169
26	Элмуродова Г.А. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНИКИ ПО ПРЕДМЕТУ ФОРТЕПИАНО (НА ПРИМЕРЕ ЭТЮДОВ К. ЧЕРНИ)	173
27	Iseev R. FORTEPIANO ATQARÍWSHÍLÍĠINDA POLIFONIYA JANRINIŇ AHMIYETI. POLIFONIYALÍQ SHÍĠARMALAR USTINDE JUMÍS ALÍP BARÍW	180

JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

28	Jabbarov I.A., Bazarbaeva N.I. MOBILE APPLICATIONS AS A CONTEMPORARY INSTRUMENT FOR ENHANCING ENGLISH LANGUAGE LEARNING	187
29	Marziyaev J.K. JOQARÍ OQÍW ORÍNLARÍŇDA JURNALIST QÁNIGELERDI TAYARLAW	194
30	Kalimbetova S.A. O‘ZBEK JADID DRAMATURGIYASI VA TEATRI (“Padarkush” va “To‘y” dramalari misolida)	201

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER
XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikalıq jurnal